Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	**III. Kimyo fanni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar**				
O‘quv modul	3.2. Kimyo darslarida zamonaviy ta’lim texnologiyalari				
Mavzu	Kimyo darslarida loyihalash texnologiyasi				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	• O‘qituvchilarga loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi, tadqiqot xarakteridagi loyihalar, ijodiy xarakterdagi loyihalarning ahamiyatini tushuntirish; • O‘qituvchilarning juftlik, kichik guruhlar, jamoada o‘quv loyihalarini tayyorlash ko‘nikmalarini shakllantirish.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	- Salomlashish; - mavzu va reja bilan tanish-tirish.	5	Suhbat, tushuntirish	1-2-slaydlar	O‘qituvchilar mashg‘ulotni o‘rganishga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	- Qiziqarli jumboq yoki muammoli savol - “Mavzuning dolzarbligi” haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	3-slayd 1-ilova	O‘qituvchilar mavzuga qiziqib, ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	O‘qituvchilarga loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi, tadqiqot xarakteridagi loyihalar, ijodiy xarakterdagi loyihalarning ahamiyatini tushuntirish; O‘qituvchilarning juftlik,	15	Taqdimot, ko‘rgazma-li tushun-tirish	4-11- slaydlar	O‘qituvchilar loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi, tadqiqot xarakteridagi loyihalar, ijodiy xarakterdagi loyihalarning ahamiyatini nazariy jihatdan o‘rganadi.

	kichik guruhlar, jamoada o‘quv loyihalarini tayyorlash ko‘nikmalarini shakllantirish.				
4. Amaliy mashg‘ulot	- Guruhlarda ishlash: Har bir guruhga loyiha texnologiyasini kimyo darslariga tatbiq etish yuzasidan topshiriqlar berish.	35	Guruhlarda ishlash	1- tarqatma; 12-slayd	O‘qituvchilar mavzu yuzasidan amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.
5. Tahlil va muhokama	- Guruhlar ishlari bo‘yicha taqdimotlar; - Qiyinchiliklarni muho-kama qilish; - Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish	10	Suhbat, muhokama, tahlil	12-slayd; 3-ilova	O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	- “Men nimani o‘rgandim?” usuli orqali xulosa qilish	5	Refleksiya usullari	13-slayd	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	- Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish - Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat	14-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlarga yo‘naltiriladi.

Ilovalar

1-ilova. Tinglovchilarga quyidagi ko‘rinishdagi savollar bilan murojat qilinadi (namuna):
Loyihalash texnologiyasining asosiy g‘oyasi nima va u ta’lim jarayonida qanday rol o‘ynaydi?

2- ilova 1-tarqatma material

Tinglovchilar 4 ta guruhga bo‘linishadi va har bir guruhga quyidagi amaliy topshiriq matni tarqatiladi.

1-guruh uchun topshiriq. Guruhda ishlagan holda, maktabda plastik chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha tadqiqot loyihasini ishlab chiqing. Loyihaning maqsadi, bosqichlari va kutilayotgan natijalarni yozing.

2-guruh uchun topshiriq. Ijodiy yondashuv asosida ekologik muammolarni aks ettiruvchi san’at asari yoki kichik model yarating va uning mazmunini tushuntiring.

3-guruh uchun topshiriq. Yangi turdagi energiya manbalarini targ‘ib qiluvchi ijodiy loyiha tayyorlang va uni taqdimot shaklida himoya qiling.

4-guruh uchun topshiriq. Tadqiqot xarakteridagi loyihalarni bajarish jarayonida qanday bosqichlar amalga oshiriladi? Har bir bosqichning ahamiyatini tushuntiring. Biror muammoni hal qilish uchun tadqiqot loyihasining qaysi jihatlari muhimligini misollar bilan izohlang.

3-ilova. Har bir guruh quyidagi savollarga javob berishadi va jadvalni to‘ldirishadi.

a) Topshiriqni bajarish jarayonida qanday qiyinchiliklarga duch keldingiz?
b) Guruhda ishlashning afzalliklari nimada?
c) Topshiriqni bajarish jarayonida nimalarni o‘rgandingiz?

Kamchiliklar	**Afzalliklari**